MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

QO‘QON SHAHRI MUSIQIY MUHITI

Nazokat Karimova,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsent v.b.,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo‘qon shahrining madaniy-musiqa muhiti, xususan, musiqa, adabiyot va tomosha san’atining rivojlanish manzaralariga bag‘ishlanadi. Qo‘qon xonligi davrida shaharning siyosiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei, saroy va xalq muhitida faoliyat olib borgan ijodkorlarning badiiy faoliyati yoritiladi. Shuningdek, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, mumtoz ashula, lapar, yalla va xalq qo‘shiqlarining rivojlanishi, ularning ijro amaliyotida qo‘llanilgan cholg‘u sozlari hamda an’anaviy ijrochilik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Muqimiy, Furqat, Nodirabegim, Ashurali Mahram kabi ijodkor va san’atkorlarning Qo‘qon madaniy hayotidagi o‘rni alohida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon, musiqa madaniyati, maqom, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, mumtoz musiqa, ashula, Bayot, Ushshoq, hofiz, sozanda, bastakor, Muqimiy, Furqat, Ashurali Mahram.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается культурно-музыкальная среда города Коканда во второй половине XIX – начале XX века, в частности, особенности развития музыкального, литературного и зрелищного искусства. Освещается роль Коканда как политического и культурного центра в период существования Кокандского ханства, а также творческая деятельность поэтов, музыкантов и исполнителей, действовавших как в дворцовой, так и в народной художественной среде. Особое внимание уделяется развитию Фергано-Ташкентских макомных путей, классического вокального искусства, лапаров, ялла и народных песен, а также музыкальным инструментам, использовавшимся в исполнительской практике, и особенностям традиционного музыкального исполнительства. Отдельно анализируется вклад таких выдающихся деятелей литературы и искусства, как Мукими, Фуркат, Нодирабегим и Ашурали Махрам, в формирование и развитие культурной жизни Коканда.*

Ключевые слова: *Коканд, музыкальная культура, маком, Фергано-Ташкентские макомные пути, классическая музыка, вокальное искусство, Баёт, Ушшок, хафиз, музыкант-исполнитель, композитор, Мукими, Фуркат, Ашурали Махрам.*

Abstract. *This article examines the cultural and musical environment of Kokand during the second half of the nineteenth and the early twentieth centuries, with particular emphasis on the development of music, literature, and performing arts. It explores the city’s significance as a political and cultural center during the Kokand Khanate and highlights the artistic activities of poets, musicians, and performers associated with both courtly and popular cultural traditions. Special attention is given to the development of the Fergana–Tashkent maqom traditions, classical vocal music, lapar, yalla, and folk songs, as well as the musical instruments used in performance practices and the distinctive characteristics of traditional musical interpretation. The article also analyzes the contributions of prominent literary and artistic figures, including Muqimi, Furqat, Nodirabegim, and Ashurali Mahram, to the formation and development of Kokand’s cultural and musical life.*

Keywords: *Kokand, musical culture, maqom, Fergana–Tashkent maqom traditions, classical music, vocal art, Bayot, Ushshoq, traditional singer (hofiz), instrumentalist, composer, Muqimi, Furqat, Ashurali Mahram.*

Tarixdan ma’lumki, XIX asrning ikkkinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari butkul tanazzulga yuz tutdi. Buning natijasida rus madaniyati asta-sekin yuqori qatlam va mahalliy xalq orasiga singib kira boshladi. Azaldan Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qonda fan, adabiyot va san’at rivoj topganligini ko‘rish mumkin. Qo‘qon xonligining tashkil topishi, markazlashgan davlat sifatida faoliyat yuritishi xonlik hududida o‘ziga xos adabiy muhitning shakllanishiga imkon yaratdi. Bu davrda Huvaydo, Sho‘xiy, Akmal, Nizomiy Ho‘qandiy kabi adabiyot namoyandalari ijod qilishdi. Huvaydoning “Devon”i tarkibiga kirgan she’rlari va “Rohati dil” dostoni adabiy muhit va xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, shoir ijodining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Qo‘qon shahri xonlik poytaxti bo‘lish bilan birga, asosiy madaniy markazlardan biri hisoblanardi. O‘z davrining ko‘plab qobiliyatli san’at ahlini to‘plab, o‘ziga xos ijodiy muhit barpo eta oldi. E’tiborli tomoni, u yerda yashab ijod qiluvchilarning aksariyati shu zamindan edi.

Farg‘ona vodiysining boshqa shaharlari qatorida Qo‘qon ham ko‘p tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib keladi. Asli kelib chiqishi Sankt-Peterburglik, lekin umrining asosiy qismini Toshkentda o‘tkazgan tarixchi-san’atshunos Sofiya Mixaylovna Krukovskaya vodiyga ijodiy safar uyushtiradi. “Встречи с Кокандом” (Qo‘qon bo‘ylab) ilmiy-ommabop janrida yozilgan mazkur kitobida muallif shahar hayotining ayrim bosqichlari, qo‘qonliklar bilan uchrashuvlardan olgan tassurotlarini yoritadi. S.Krukovskaya kuzatuvlari natijasida shunday xulosaga keladi: “Qo‘qon madaniy hayotida uch nafar ma’rifatparvar (shoir) Muqimiy, Furqat va Hamza alohida o‘rin tutadi. Ular oddiy xalq orasidan chiqqan, yoshligidan tevarak-atrofida zulm, qashshoqlik, jaholatni ko‘rgan, o‘z davrining bilimli odamlari edi. Ularning har biri o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining ma’lum bir bosqichini, uning ijtimoiy ahamiyatini belgilab berdi” [1,102].

XIX asrda Qo‘qonda kimyo, geografiya matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid asarlar yaratilishi bilan bir qatorda adabiyot va tarixnavislik sohalari ham sezilarli taraqqiy etganligiga guvoh bo‘lamiz. Avvallari yozib qoldirilgan ko‘plab risolalar aksariyati arab va fors tillarida bo‘lgan. Asr o‘rtalariga kelib bu noyob qo‘lyozmalar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Qo‘qon xonligi o‘tmishiga mansub bo‘lgan kitoblar yozildi. Asosan she’riy yo‘lda yozilgan mazkur risolalar o‘ziga xosligi bilan boshqa asarlardan ajralib turardi.

Qo‘qonda faoliyat yuritgan tarixchi olimlar adabiyotni chuqur o‘rganibgina qolmay, balki o‘zlari ham she’riyatda qalam tebratganliklarini ko‘rish mumkin. Ayrimlari hatto o‘z davrining mashhur shoirlaridan bo‘lganligi e’tiborni tortadi. Ba’zi ijod ahlining kelib chiqishi Qo‘qondan bo‘lmasa ham, adabiy muhit markazi hisoblangan mazkur shaharda muqim yashab shu yerda asarlarini yozishdi.

Turkistonning boshqa shaharlarida bo‘lgani kabi Qo‘qon shahrida ham ko‘plab iqtidorli xattotlar faoliyat yuritar edi. O‘z uslubiga hamda maktabiga ega bo‘lgan xattotlar boshqalardan farqlanib turardi. Qo‘qonda faoliyat yuritgan xattotlar serqirra ijodkor bo‘lib, ularning aksariyati ham shoir, ham tarixchi, ham miniatyurachi edi.

Mulohazalar tasdig‘i siftida, ham shoir ham xattot bo‘lgan ijodkorlardan Mirzo Sharif Dabir, Mirmahmud Qori Shamsiddin o‘g‘li, Ma’sumxon Gulxaniy, Rojiy Xo‘qandiy, Husayinjon Hoji Sulaymonqul o‘g‘li Muhsiniy, Muhammad Niyoz Ho‘qandiy Ashur Muhammad o‘g‘li, Muhammad Aminjon Toshmuhammad o‘g‘li Mahjur, Mir A’zam Davron Ibrohim o‘g‘li, Muhammad Yunus Toib Muhammad Amin o‘g‘li, Mirzo Xayrullo Mirzo Xo‘qandiy Mirzo Nosir o‘g‘li, Abdulg‘ofur Maxdum Bulbul Favziy hamda Muqimiy Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘lini qayd etishimiz mumkin.

Darhaqiqat, Muqimiy xattotlik bilan ham shug‘ullanar edi. Nasta’liq yozuvida ko‘plab ruboiylarni ko‘chiradi. Ularning tagiga “Mashoqahu Muqimiy”, “Muhammad Amin Ho‘qandiy”, ba’zan esa “Muhammad Aminxo‘ja” deb yozib qo‘yadi. “Tazkirai Qayyumiy” asarida ham bu haqida quyidagicha bayon etiladi: “...Muqimiy xalqg‘a shoir bo‘lib tanilgan. Shu ishda faqirlik ila yashagan. Husni xat egasi xattot, insho, tahrirda mukammal xatnavislik bilan hayot kechirgan. Imom, mutavalli, yo qozi bo‘lsa, ilmi tayyor edi. Bu xizmatlarni qilmadi...” [2, 212]. Tadqiqotni yozish jarayonida Muqimiy hujrasida bo‘lish nasib etdi. Shoir u yerda 1886-yildan 1903-yilgacha istiqomat qiladi. Hujrada Muqimiy dastxati bilan yozilgan husnixat namunalarini uchratish mumkin. Mazkur hujra o‘sha davr Qo‘qon madaniy muhitining markaziga aylangan bo‘lib, xalqqa tanilgan shoir va san’atkorlar yig‘ilib, mushoira kechalari o‘tkazib turishgan.

Ayonki, xalq ijodiyotining eng qadimgi janrlaridan biri lapardir. Farg‘ona vodiysi hududlarida qadimdan turli xil laparlar ijro etib kelinadi. Amir Umarxonning rafiqasi Nodirabegim she’riyat va musiqaga ixlosmand ayol edi. Shu sababli u san’at ahli bilan yaqinlashishga va atrofiga ko‘plab sozanda, xonanda, shoira, aktyor va raqqosalarni to‘plashga muyassar bo‘ldi. Bu ijodiy muhit Xudoyorxon davrida ham davom etdi. Saroyga yig‘ilgan san’atkorlar xon oilasi va kanizaklarining madaniy xordiq chiqarishlari uchun xizmat qilishgan.

Moziydan ma’lumki, nafaqat ijodkor ahlining, balki xonlarning ham san’atga qiziqishi juda yuqori bo‘lgan. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Bahrom Irzaevning mutaxassislar va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan asarida Umarxon va Nodiraning musiqaga ixlosamand farzandi haqida quyidagi qimmatli ma’lumotlarni keltiradi: “... Madalixon ham musiqaga juda havaslik, hatto yaxshigina cholg‘uchi va bastakor bo‘lib, Urganchdan Solihbek va Mo‘minbek degan cholg‘u ustalarini chaqirtirib olib, saroyda musiqaga qiziqishning yanada kengroq tarqalishiga sabab bo‘ladi. G‘ulom Zafariy o‘z kitobida (aslida maqolasida – N.K.) mazkur xon bastalagan “Madalixon” degan kuyning o‘z zamonigacha yetib kelganini, xonning yaqin beklaridan bo‘lgan Karimqulbek bastalagan “Karimqulbegi” kuyini esa hamma musiqachilar bilishini aytadi” [3, 11]. Demak, bundan ko‘rinadiki, shaharga xonlikning turli tomonlaridan zo‘r qobiliyatga ega bo‘lgan adabiyot namoyondalari, shoir, yozuvchilar, xattot va tarixchilar va boshqa soha vakillari kelib faoliyat yuritishadi. O‘z navbatida bu san’at ahli asosan ikki oqimda faoliyat yuritdi. Birinchisi saroyda, ikkinchisi esa asosan oddiy xalq orasida ijod qilishadi.

Atoqli romannavis adibimiz Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” asarida Qo‘qon xoni Xudoyorxon saroyidagi ayol san’atkorlar xususida ma’lumot beradi. Mazkur qizlar mamlakatning har chekkalaridan beklardan xonga in’om tariqasida yuboriladi. Xonning ko‘ngil ochishiga xizmat qiluvchi mazkur guruh raqqosa, sozanda va navozanda

kanizaklarning sonidan kelib chiqib “qirq qizlar” nomini oladi. Romanda keltirilishicha, “.... shaharning mashhur xotinlari bo‘lg‘an Nusrat hofiz, Botirboshi xola, Tillo hofiz, Toji hofiz, Misqol hofiz, Xon og‘acha, Misoq og‘acha, Ulug‘ o‘yunchi, Shohbachcha, Rajabxon, Tosh hofiz va hatto marg‘ilonliq Zebixonlardan o‘yunga, sozg‘a, ashulaga ta’lim olib kelarlar va shuning uchun har birlari o‘z hunarlarida yaxshi san’atkor bo‘lg‘an edilar” [4, 155]. Bundan ayon bo‘ladiki, Qo‘qon xonligi saroyida raqs, sozandalik va mumtoz hofizlik san’ati borasida ayollar ham mashhurlikka erishishgan.

Sharqshunos etnograf tadqiqotchi A.L. Troitskaya o‘z izlanishlarida tomosha shaklidagi namoyishlar xususida to‘xtalib o‘tadi. Bunday tadbirlarni sozanda va xonandalar boshlab bergan bo‘lsa, qiziqchi va dorbozlar aravalarda o‘tib, yakunlaganlar [5, 196]. Qo‘qon aholisi uchun odatiy ko‘ringan tomosha san’ati xorijdan tashrif buyurganlar uchun o‘ta ajablanarli namoyish tarzida gavdalanadi.

Bundan tashqari, Rossiyadan Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlariga malakali o‘qituvchilar mahorat darslarini o‘tish uchun taklif etilgan. Jumladan, Moskvalik musiqa o‘qituvchisi I.E. Grinberg Qo‘qonda musiqa ishqibozlariga yakka tartibda dars bergan bo‘lsa, 1890-yilning sentyabr oyida P.N. Gorodovskiy boshchiligida “Kichik Rossiya” kapellasi artistlari Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlarida dars berishadi. Bu o‘z navbatida Turkistonga asta-sekin rus musiqa madaniyatini keng tarqalishi uchun qo‘yilgan dastlabki qadamlardan edi.

Xonlik davrida o‘tkazilgan xalq tantana va sayillarida san’atkorlar asosiy ishtirokchi sifatida taklif etilgan. Akademik Haydarbek Bobobekov bu borada qiziqarli dalillarni keltiradi: “Turkiston general-gubernatorining vakili I.Ibragimov Qo‘qondagi maydonda musiqachilar uchun maxsus o‘rnatilgan karuselni ko‘rganligini ta’kidlaydi. Uning so‘zlariga qaraganda bayramlarda unga musiqachilar bir necha qator o‘tirishib kuy va ashula ijro etishgan. Karusel esa sekin aylantirilgan” [6,187].

Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlari ichida vodiydan yetishib chiqqan askiyachi, dorboz, qiziqchi-masxaraboz bo‘lgan san’atkorlar ma’lum va mashhur edi. Ayniqsa, mazkur san’at turini mukammal tarzda o‘zlashtirgan va xalq ko‘nglidan chuqur joy olgan aktyorlar Qo‘qonda talaygina bo‘lgan. Xususan, Zokirjon Eshon – boshchiligidagi qiziqchilar truppasi faoliyat yuritgan bo‘lib, uning tarkibiga Qo‘qon va Marg‘ilondan tashrif buyurgan san’atkorlar jam bo‘ladi. Aynan Zokir Eshonni XIX asr xalq teatrining eng yirik va qobiliyatli korfarmoni, ya’ni hozirgi zamon tili bilan aytganda, rejissyori desa bo‘ladi, – deb ta’rif beradi tadqiqotchi olim Abdumutal Qambarov: “... u Qo‘qonda eng yirik teatr jamoasini tuzib, unga badiiy rahbarlik qilgan. Jamoaga mos keladigan repertuar tanlash, tomoshabinlar didiga mos rejalar tuzish va xalq tomoshalarini talqin qilish, ijrochilarning tashqi qiyofasi, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda rol taqsimlash, ijrochilar o‘rtasida bir darajada uyg‘unlik va moslik yaratish bo‘yicha jiddiy muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan” [7,315].

Mazkur guruh tarkibida o‘z davrining yetuk va taniqli san’atkorlari faoliyat yuritadi. Jumladan, Rizo Qiyiq, Sa’di Mahsum, Normat qiziq, Boybuva qiziq, Mo‘min Qishloqi, Bahrom qiziq, Usmon qiziq, Ro‘zi Gov, Davlat qiziq, Kal Sariq qiziq hamda Avliyoxon qiziq va boshqalar. Bu ijodkorlar safida aktyor, hofiz, sozanda va raqqoslar jamlanib, xalqona tomoshalarning barqaror an’analarini vujudga keltiradi. Ular olib borgan faoliyat natijasida

mintaqaning madaniy hayotida xalq teatrchiligi, sahna madaniyati va ommaviy ko‘ngilochar san’at turlari keng qamrovli taraqqiyot bosqichiga ko‘tariladi.

Tarixshunos olim H.Bobobekov san’atkorga ta’rif berarkan: “Zokirjonning aktyorlik mahoratidan qoyil qolgan Xudoyorxon xonning o‘zini ham ko‘rsatib berishni buyuradi. Ehtiyotkor Zokirjon avval Xudoyorxondan avfnoma yozdirib oladi. Unda agarda ko‘rsatuv xonga yoqmasa aktyor jazolanmaydi, deb qayd etilgan edi. Bunday hujjatni olgan Zokirjon Xudoyorxon rolini shunday o‘ynaydiki, tomoshabinlar lol qoladi. Ammo Xudoyorxonga u yoqmaydi. G‘azablangan xon va’daga muvofiq Zokirjonning jonini saqlab qoladi, ammo saroydan chetlatib Qo‘qon shahridan chiqarib yuboradi, aktyor mulkini esa musodara etadi” [6, 185].

Qo‘qon xonligida nom qozongan ko‘plab iste’dodli hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz yoxud qiziqchilik bilan shug‘ullangan san’atkorlarga Xudoyorxon bir qancha talablar qo‘ygan, ya’ni: “.....masxaraboz va qiziqchi, birinchidan, unga huzur bag‘ishlasin, uni qah-qah urdirib kuldirsin, zil ketayotgan ko‘ngliga taskin bersin, ikkinchidan, saltanati, shon-shavkatini bezasin, rang bersin, uchinchidan, dushmanlaridan o‘ch olish va umuman fe’liga yoqmaganlarni jazolashga yordam qilsin, to‘rtinchidan, barakasi uchayotgan xazinasini to‘ldirishga oz bo‘lsa ham ulush qo‘shsin” [8,37].

Modomiki shunday ekan, Xudoyorxon tomonidan belgilangan vazifalar bajarilmagan taqdirda san’atkorlar ta’qib va ta’ziqlarga duch keladi. Bu holat ayrim mashhur ijodkorlarning Qo‘qondan chetga chiqib yashashiga sabab bo‘ladi. Shunga qaramay, bir qator shoirlar xon sha’niga madhiyaviy she’rlar yaratishda davom etishadi.

Aynan xon talablari asosida ijod qilishni ma’qul ko‘rmagan san’atkorlardan biri Ashurali Mahram (1825 – 1863) – sozanda, xonanda, bastakor, mehtar, ipakdo‘z bo‘lib faoliyat yuritgan. Farg‘ona vodiysi va Toshkentda nom qozongan ijodkorlardan hisoblanadi. Uning qobiliyatidan xabar topgan Xudoyorxon saroyiga chaqirtirib oladi. Lekin ma’lum sabablarga ko‘ra, saroydagi muhit, ko‘pqirrali san’atkor – xushovoz xonanda, sozanda va bastakorga ma’qul kelmaydi.

Farg‘ona-Toshkent maqom ashula yo‘llari orasida keng tarqalgan ko‘p qismli ashula turkumlaridan, Ashurali Mahram tomonidan bastalagan Chorgoh, Bayot, Gulyor-Shahnoz, Dugoh-Husayn ayniqsa mashhur bo‘ladi. U Farg‘onada “Katta ashula”ning rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Muqimiy she’riyatida ham “Ushshoq”, “Gulyor”, “Bayot”, “Navo” kabi maqom nomlari uchraydi. Shoir bu atamalarni ma’nolariga ko‘ra ta’riflaydi. Jumladan, shoirning Navoiy g‘azaliga yozgan muxammasida:

G‘animat baxtu fursat, ey mug‘anniy, chal digar gun,
Kerak “Ushshoq”, “Gulyor” aylasang o‘tlug‘ chekibon un.

Shu asnoda Mavlono Muqimiyning maqom nomlari bitilgan yana boshqa misralariga e’tibor beraylik:

Qo‘y, ey mutrib “Bayot”, “Ushshoq” yoqmaydi quloqlarga,
Tarannum aylasang mahfilda qil “Gulyor” deb keldim.

Mazkur satr orqali Muqimiy “Bayot”, “Ushshoq”larning og‘ir, dardli ohangidan biroz charchaganini aytmoqda. Shoir bu ohanglarni hozirgi kayfiyatiga mos emas, deb

ko‘rsatadi. Muqimiy mahfilda xushchaqchaq, yengil, quvnoq ashula – “Gulyor”ni kuylashni istaydi.



Yuqoridagi g‘azal mazmunini anglab olishda “Bayot”,“Ushshoq”,“Gulyor” kabi musiqaga ham bevosita aloqador atamalar e’tiborni o‘ziga tortadi. Darvoqe, “Bayot” – “O‘n ikki maqom tizimi hamda Buxoro Shashmaqomi tarkibida muayyan shlar nomi bo‘lib, Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llaridan biridir. U Shashmaqomdagi Navo maqomining “Bayot” nomli shlari bilan hamohangdir. Bu ashula yo‘llari Bayot I, II, III, IV, V deb yuritilib, birinchisi Saraxbor, ikkinchisi Tarona, uchinchisi Savt, to‘rtinchisi Talqincha va beshinchisi Qashqarcha doyra usullari asosida yaratilgan” [9,31], deb hisoblansa, “Ushshoq” ya’ni oshiqlar – Farg‘ona-Toshkentda mashhur bo‘lgan maqom yo‘li nazarda tutiladi.

Qo‘shilsin bul muxammas bazmi ichra savti gulyora,
Qo‘ying, yo‘l bermangiz ulfatlar ichra bo‘lsa ag‘yora.
Mahfil ichra, ey mutrib, soz aylag‘il “Gulyor”,
Tob yo‘q eshitmakka “Kurtu” “Ko‘cha bog‘lar”din.

E’tibor qilinsa, muallif mutribga murojaat qilishda cholg‘uni ham, kuy nomini ham aniq ta’kidlaydi. Bu o‘rinda “Kurt”, “Bayot”, “Gulyor”, “Ko‘cha bog‘lar” soz sadosi ostida jarang sochishi ko‘ngilga va quloqqa yoqimli bo‘lishi eslatilmoqda. Bular esa o‘z navbatida Muqimiyning mahoratli lirik shoir bo‘lish bilan birga, musiqa ilmidan ham yaxshi xabardor san’atkor bo‘lganiga ham ishora qiladi.

Shuningdek, ko‘pgina shoir, hofiz va sozandalar bilan o‘tkazilgan mushoira kechalari, ijodiy yig‘inlar, suhbatlar chog‘ida milliy musiqa janrlari, maqom yo‘llarini o‘rgandi. Shu sababdan she’riy misralarini milliy kuy nomlari va ohanglari bilan boyitdi.

Muqimiyning asarlarida zamonaviy musiqiy amaliyotda keng qo‘llanilgan turli cholg‘ularga oid ma’lumotlar uchraydi. Shu jumladan, setor cholg‘usi bilan bog‘liq quyidagi misra ularning ijro amaliyotida qanchalik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi:

G‘amzudo xonishlarin o‘pkam to‘lub yod aylaram,
Gar eshitsam o‘lturub bir bazmda setor man.

Mazkur baytda shoir setor cholg‘usining ijodiy va hissiy ta’sirini ifodalaydi. “G‘amzudo xonishlarin o‘pkam to‘lub yod aylaram” satrida shoir xonishlarning shirin va ta’sirchan ovozlarini eslab, ruhiy holatini ifodalaydi. “Gar eshitsam o‘lturub bir bazmda

setor man” degan jumlada esa u setor cholg‘usi bilan birgalikda ashulalarni tinglash orqali his-tuyg‘ularini chuqurlashtirishi va bayramona, madaniy muhitdagi o‘zini tutishini tasvirlaydi.

Yodima sozi dutor-u ruhafzo xonishing
Tushsa, har soat battaroq zordurman sog‘inib.

Yuqoridagi baytda ham mug‘anniyning cholg‘usi torli bo‘lib, uning torlarini chertib chalinadigan noxun yoxud mizrobga ishora berilmoqda. Mazkur baytda shoir dutor va ruhafzo cholg‘ulari bilan birga xonishning ovozi orqali his-tuyg‘ularining chuqurligini ifodalaydi.

Shoirning yana bir boshqa misrasida:

Bahar holat o‘qub tanbur birlan,
“Bayot”, “Ushshoq” ul Hojiyi xushxon [10,103].

O‘z navbatida Muqimiyning zamondoshi va yaqin do‘sti Furqat ham Hindiston safari mobaynida Qo‘qondagi san’at ahliga quyidagi nomasini yo‘llaydi:

Assalom, ey ahli hush: ahbobu do‘stu yorlar,
Hofizixush lahjalar, tanburlar, samturlar,
Nolachi mashshoqlar, noxunda musiqorlar [11,115].

Yuqoridagi misralardan ayon bo‘ladiki, XIX asrning ikkinchi yarmida torli musiqiy cholg‘ular amaliyotda keng qo‘llanilgan. Bunga misol tariqasida Mavlono Muqimiyning quyidagi misrasini keltiramiz:

Nazm tanburig‘a vasfing gavharin chekti Muqim,
Qil karam aylab tarannum goh, ey miskin navoz.

Shoir o‘zining she’riyati (nazm)ni tanburga qiyos qilmoqda. – “Vasfing gavhari” – madhiyalarning asl qimmatbaho mazmuni she’r shaklida “tanbur”ning toriga tushganday bo‘ldi, ya’ni she’r ham cholg‘u kabi ovoz chiqarib jaranglamoqda. “Navoz” – sozanda ma’nosida kelib, shoir mutribga murojaat qilmoqda: “Karam qil, tarannum ayla!” – ya’ni mehribonlik qilib kuy chal. “Miskin navoz” iborasi hofizning kamtar, ammo san’atkorona mahoratini ifodalaydi.

Shuningdek, Qo‘qon xonligida karnay, surnay (damli), nog‘ora va doira (urma) kabi cholg‘ular amaliyotda keng foydalanganligi aks etadi. Sozandalar haqida “Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin” nomli tarixiy qo‘lyozma asarda bu borada qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan: “Rahim nog‘orachi degan o‘tkon xonlardin qolgan tabarruk odam bor erdi. Har kun shodiyona qo‘yib kavsi kalon nag‘oralar va karnay-u surnaylarni navozashga kirgizub nag‘mani jon kadoz (mehnat) aylar erdilar. Boltaxon hofiz Namangoniy, Ko‘r Yusuf Namangoniy surnayni jo‘r qilib tong otkuncha hofizlik qilar erdilar” [6,187].

San’atkorlar nafaqat to‘y-tantana, bayramlarda, balki xalqning boshiga og‘ir musibat tushganda ham yonma-yon turib ishtirok etishardi. Hofiz va sozandalarning haqiqiy vatanparvarligi ayniqsa 1842-yili namoyon bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, o‘sha yili Buxoro amiri Nasrullo Qo‘qon shahrini bosib olishga urinadi. Biroq oz fursat ichida buxorolik noib chekinishga majbur bo‘ladi. Oradan ko‘p o‘tmay, Buxoro amiri Nasrullo yana qo‘shin yig‘ib Qo‘qonga yurish qiladi. Qo‘qon harbiylar mustahkam mudofaa tashkil qilib, buxoroliklarga qaqshatqich zarbalar berishadi. Mazkur janglarda ishtirok etgan qo‘qonliklarga ruhiy madad berish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida shu yerlik hofiz va sozandalar holdan

toygan askarlarga qo‘shiq, ashula aytib, cholg‘u kuylari ijro qilib, ularning jasoratini ko‘rsatishga chorladilar.

E’tiborli jihatlaridan yana biri, Qo‘qon xonligida mumtoz musiqa ham keng rivoj topdi. Tarix fanlari doktori, professor Hojiakbar Hamidovning ma’lum qilishicha: “Xonlikda mashhur bo‘lgan ushbu maqom yo‘llari qo‘shiqlari ko‘pincha saroydagi tantanalarda, xalq bayramlarida, katta yig‘inlarda shu yo‘nalishning mashhur ustozlari, xonandalari tomonidan ijro etilib kelgan. Bu yo‘nalishdagi Dugoh Husayniy, ayniqsa el orasida juda mashhur bo‘lgan” [12,138].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib xulosa qilib aytish mumkinki, san’atning keng rivoj topishi va taraqqiyoti birinchi navbatda shahar madaniyatiga bog‘liq holda kechdi. Qo‘qon xonligida ijod ahlining musiqiy-she’riy qobiliyatlari, aktyorlik va raqqosalik mahoratlarini namoyish etishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘ldi. Xonlikda ko‘plab iste’dodli hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz yoxud qiziqchilik bilan shug‘ullangan san’atkorlar shuhrat qozondi. Qo‘qon davri madaniyatiga nazar tashlansa, musiqaning barcha yo‘nalishlarida rivojlanish yuqori darajada kechganligini ko‘rish mumkin. Xususan, Qo‘qon xonliklari davrida ashula, yalla, lapar va qo‘shiq hamda mumtoz musiqaning ijodkorlari va ijrochilari, milliy raqs janrlari aholi o‘rtasida keng qo‘llanilardi.

Aytish o‘rinliki, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg‘ona hududlarida musiqa madaniyati nafaqat rivoj topdi, balki butun Turkiston taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsata oladigan darajada o‘zining mavqeiga ega bo‘ldi. Qo‘qon xonligi davrida san’at turlari rivojlanishiga xizmat qiluvchi ko‘plab lavhalarni keltirish mumkin. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ko‘rilayotgan davr nafaqat o‘zbek balki, xorijiy musiqa namoyandalari va etnograflari e’tiborini o‘ziga jalb etib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Круковская С. Встречи с Кокандом. – Ташкент: “Узбекистан”, 1977. – С.102.
2. Қаюмов П. Тазкираи Қайюмий. (Нашрга тайёрловчи А.Қаюмов) – Тошкент: Қўлёзмалар институти. 1998. 212 -b.
3. Ирзаев Б. Ўзбек мусиқа маданияти тарихи саҳифаларидан. – Тошкент: “Akademnashr”, 2017. 11 - b.
4. Абдулла Қодирий. Мехробдан чаён. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 2016. 155 -b.
5. Троицкая А. Народный театр в Узбекистане. Hamza nomidagi san’atshunoslik instituti arxivi. Inv. 203, 51-son, 1-qism, 196 - b.
6. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Тошкент: ЎзР ФА “Фан”, 1996. 187 -b.
7. Qambarov A. Qo‘qon xonligida xalq tomosha san’ati (Xalq tomosha san’atining mohir ijrochisi Zokir Eshon misolida). // Actual problems of the history of Uzbekistan / Актуальные проблемы истории Узбекистана. № 1 (2022), – B.315.
8. Qambarov A., Mannopov S., Najmetdinova M. O‘zbek san’ati tarixi. – Toshkent: “Farg‘ona”, 2021. 37 - b.
9. Ражабов И. Шарқ мусиқа атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: “TAMADDUN”, 2023. 31-b.

10. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. Тузувчи: Турдиалиев А. ва б. – Тошкент: “IQTISODIYOT” 2021. 103-b.

11. Фурқат. Танланган асарлар. 2 жилд. – Тошкент: 1959. 115 -b.

12. Ҳамидов Ҳ. Қўқон хонлигида маданий-адабий жараёнлар тарихидан // Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон: 2022. 7-10 июн. 138 -b.